

turistik klaster maqomi ushbu qarorga ilovaga muvofiq kompleks turistik xizmatlar hamda sayyohlarning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatuvchi mustaqil tashkilotlar va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkorlar majmuiga berilishi;

turistik klasterlar belgilangan tartibda turistik klaster maqomi to'g'risidagi guvohnomani olgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanishi;

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi (keyingi o'rinlarda—Turizm qo'mitasi) turistik klaster maqomini berish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanishi;

turistik klaster maqomini olish uchun tadbirkorlik sub'ektlarining arizalari vakolatli davlat organiga elektron shaklda yoki pochta orqali yuborilishi va bepul ko'rib chiqilishi;

Turizm qo'mitasiga mahalliy hokimliklar bilan birgalikda turistik klasterlarni tashkil etish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida zarur shart-sharoitlarni yaratib borish vazifasi belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Turizm boshqarmasi (O.Rasulov):

Namangan viloyati hokimining mazkur topshirig'i bilan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 915-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, ish tashkil qilsin;

turistik klaster maqomini olish uchun belgilangan talablar, arizalarni ko'rib chiqish tartibi va qaror qabul qilish tartibi haqidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-saytlar va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishini tashkil etsin; uch oy muddatda viloyatda istiqbolli turistik klaster loyihalarini aniqlab, amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqsin;

Namangan shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda turistik klasterlarni tashkil etish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida zarur shart-sharoitlarni yaratib borsin;

“turoperator-mehmonxona-transport-savdo va servis” xizmatlari birgalikda ko'rsatiladigan turistik klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yish, shuningdek, ularning xizmat va mahsulotlarini xalqaro turizm yaramarkalari va ko'rgazmalarida targ'ib qilish choralari tashkil etish.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat-qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov